

DUNYO MINTAQALARI SIYOSIY XARITASI

Xoldarova Gulnoza Sarvarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo siyosiy xaritasining mintaqalarga ajratilishi bo'yicha umumiy tavsiflar berilgan. Bundan tashqari Afrika, Amerika, Osiyo, Yevropa hamda Avstraliya va Okeaniya siyosiy xaritalari bo'yicha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'z: siyosiy xarita, davlatlar, siyosiy mojaro, geosiyosiy vaziyat, davlat chegaralari, paytaxt, davlat turlari, mintaq.

KIRISH

Jahon siyosiy xaritasi global miqyosdagi bir necha siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan. Shularning ichida Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari hamda ularning oqibatlari bilan bog'liq holda davlatlarning vujudga kelishi, mustamlaka tizimining yemirilishi hamda bir necha o'nlab mustaqil davlatlarning barpo bo'lishi, qo'shilmaslik harakatining rivojlanishi va boshqa jarayonlar e'tiborga loyiqdir. Jahon siyosiy xaritasining shakllanishida XX asr 80-yillarining so'nggi va 90-yillarining boshlarida bo'lib o'tgan siyosiy voqealar: ikki nemis davlatining qo'shilib, yagona Germaniya davlatining tashkil etilishi, Chexoslovakiya o'rnida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalarining barpo bo'lishi, Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining parchalanib ketishi natijasida suveren Xorvatiya, Sloveniya, Makedoniya, Bosniya va Gersogovina respublikalari hamda Serbiya va Chernogoriya davlatlarining shakllanishi va, ayniqsa, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida, dastlab Litva, Latviya va Estoniya, keyinchalik esa Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Armeniya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston respublikalarining mustaqil davlatlar sifatida dunyo siyosiy kartasida o'z o'rinlariga ega bo'lishi juda muhim ahamiyat kasb etdi.

ASOSIY QISM

Dunyo siyosiy xaritasidagi davlatlar va mamlakatlar nisbati hamda soniga dastlab (1997-yil, 1-iyulda) Buyuk Britaniya mustamlakasi Gonkong (Syangan)ning, keyinchalik (1999-yil, dekabr oyida) Portugaliya mustamlakasi Makao (Aomin)ning Xitoy Xalq Respublikasi tarkibiga kirishi, 2000-yilda esa BMT tomonidan Indoneziya tarkibida bo'lgan Sharqiy Timorga alohida maqom berilishi hamda 2008-yilda Chernogoriyani Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasidan chiqib mustaqillikka erishishi ham ma'lum ta'sir ko'rsatdi. Undan tashqari, 2011-yilda Janubiy Sudan Sudan tarkibidan ajralib chiqdi.

Afrikaning orollar bilan birgalikdagi maydoni 30,3 mln. km² ni tashkil etadi. Afrikaning o'rtasidan ekvator chizig'i, g'arbidan esa bosh meridian o'tgan. Shu tufayli Afrika ham Shimoliy, ham Janubiy, ham Sharqiy, ham G'arbiy yarim sharlarda joylashgan. 54 ta mustaqil davlat mavjud. Qit'a siyo-siy xaritasining shakllanish tarixi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab Afrikaning aksariyat hududlari Yevropa davlatlarining mustamlakalariga aylandi. XX asrning boshiga kelib Afrikada faqatgina 2 ta mustaqil davlat qolgan edi: bir necha ming yillik davlatchilik tarixiga ega Efiopiya hamda 1847-yil AQSHning yordamida barpo etilgan G'arbiy Afrikadagi Liberiya davlati. Qit'aning qolgan hududi esa Buyuk Britaniya, Fransiya, Portugaliya, Belgiya, Germaniya, Italiya va Ispaniya tomonidan o'zaro bo'lib olingan edi.

Afrika davlatlari 1950-yillarda mustaqillikka erishisha boshladi. 1960-yil BMT tomonidan «Afrika yili» deb e'lon qilinib, shu yil qit'adagi 17 ta mamlakat mustaqillikka erishdi va jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi. Ko'plab mamlakatlari 1960–1980-yillar mobaynida davlat mustaqil-ligini qo'lga kiritdi. Qit'adagi eng yosh davlatlar – 1990-yilda mustaqil-likka erishgan Namibiya, 1993-yilda Efiopiyadan ajralib chiqqan Eritreya va 2011-yilda mustaqilligini e'lon qilgan Janubiy Sudan hisoblanadi.

Afrika siyosiy xaritasining o'ziga xos jihatlaridan biri yirik maydonli davlatlarning ko'pligidir. Jahondagi hududi 1 mln. km² dan katta bo'lgan 29 ta davlatdan 12 tasi Afrikada joylashgan (Jazoir, KDR, Sudan, Liviya, Chad, Niger, Angola, Mali, JAR, Efiopiya, Mavritaniya, Misr). Jahon bo'yicha mavjud bo'lgan maydoni 1 ming km² dan oshmaydigan 24 ta davlatdan atigi 1 ta – Seyshel orollari – Afrikaga tegishli.

Amerika G'arbiy yarim sharda joylashgan ikki materik - Shimoliy va Janubiy Amerikani hamda ularga yaqin orollarni qamrab olgan qit'adir. Uning umumiy maydoni 42 mln. km² ga teng.

Shimoliy va Janubiy Amerika materiklarini Panama kanali ajratadi. Amerikaning zamonaviy siyosiy xaritasida 35 ta mustaqil davlat mavjud. Ular o'z hududiy kattaligi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Qit'adagi 4 ta mamlakat dunyoning 10 ta eng yirik davlatlari qatoridan joy olgan - Kanada, AQSH, Braziliya va Argentina. Boliviya, Kolumbiya, Peru va Meksikaning maydoni 1 mln. km² dan oshadi. Venesuela va Chili davlatlarining hududi esa 500 ming km² dan katta. Shu bilan birga, Afrikadagi 7 ta davlatning maydoni 1 ming km² dan kam. Ularning barchasi Karib dengizidagi orollarda joylashgan.

Amerikada faqatgina 2 ta davlat - Boliviya va Paragvay - bevosita dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Meksika, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama

va Kolumbiya qirg'oqlari ikkita, ya'ni Atlantika va Tinch okean suvlari bilan yuviladi. AQSH va Kanada esa uchta - Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeanlariga chegaradosh.

Amerikadagi 35 davlatdan 25 tasi respublika, 10 tasi Britaniya Hamdo'stligi qirolliklari, ya'ni konstitutsion monarxiyalar hisoblanadi. Konstitutsion monarxiyalardan 2 tasi – Kanada va Beliz - Shimoliy Amerika materigida joylashgan, qolgan 8 tasi esa Karib denizidagi orol davlatlaridir.

Amerikada 7 ta federativ davlat joylashgan - AQSH, Argentina, Braziliya, Kanada, Meksika, Venesuela hamda Sent-Kits va Nevis. Sent-Kits va Nevis jahondagi eng kichik federativ davlat hisoblanadi.

Qadimiy assuriyaliklar (Mesopotamiya pasttekisligining shimoliy qismi) tilida u «sharq» ma'nosini beradi. Tabiiyki, bu qadimiy davlatdan sharqda joylashgan keng hududlar «Osiyo» deb nom olgan. Osiyoning umumiy maydoni 43,4 mln. km². Aholisi 4,5 mlrd. kishidan ziyod, ya'ni Osiyoda insoniyatning deyarli 60%i yashaydi (2018-y.) Hozirgi vaqtda uning siyosiy xaritasida 47ta mustaqil mamlakatlar bor. Birinchi aksariyat mamlakatlarning bevosita dengiz bo'ylarida joylashganligi. Bu holat ularning dengiz savdo yo'llariga to'g'ridan to'g'ri chiqishiga imkon beradi. Osiyo davlatlarining bir qismi serqatnov dengiz yo'llari, bo'g'ozlar ustida (Turkiya, Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi kabilar) joylashgani ularning iqtisodiy taraqqiyotida juda katta omil bo'lib xizmat qiladi. Qit'adagi 47 ta davlatdan 34 tasi respublika, 13 tasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Osiyoda dunyoning 5 ta mutlaq monarxiyalaridan 4 tasi (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney) joylashgan. Osiyoda 5 ta subregion yaqqol ajralib turadi. Bular: Markaziy Osiyo, Janubi-g'arbiy, Janubiy, Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyodir.

Yevropa – Yevrosiyo materigining g'arbiy qismini egallagan qit'a. Yevropa hududining maydoni 10 mln km. kv. ga teng. Shundan 4,1 mln km. kv Rossiyaning Yevropada joylashgan qismiga to'g'ri keladi. Yevropa siyosiy xaritasida 44 mustaqil davlat (Rossiya bilan birga) joylashgan. Bundan tashqari, Turkiya va Qozog'iston davlatlari ham qisman Yevropada joylashgan, ammo xalqaro statistikasida ular Osiyoqit'asi tarkibiga kiritilgan. Yevropa davlatlari odatda 4 ta yirik subregionlarga bo'linadi: Shimoliy, G'arbiy, Janubiy va Sharqiy Yevropa.

XULOSA

Eng mitti, eng past, eng quruq materik, xaltali hayvonlar vatani, sayyoramizning yaxlit noyob qo'riqxonasi, o'rtasidan Janubiy tropik chizig'i o'tadi, evkalipt daraxti vatani (bo'yi 2 m dan 150 m gacha), materikdagi berk havza maydoni (60%) jihatidan birinchi o'rinda, yagona davlat - Avstraliya ittifoqi bor, aholisining yarmi ikkita shaharda (Sidney, Melburn) yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asanov A., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. — T.: «O'qituvchi», 1994.
2. Baranskiy N.N. Методы капреп одавания экономическо йгеограф ии. — М.: Просвещение, 1990.
3. Vitver I.A. Избранные сочинения. М.: MGU, 1998.
4. Golubchik M.M. Политическая география мира. Учебное пособие. — Смоленск, 1998.
5. Islomjanovna, A. M. (2024). Bolaning Ijtimoiylashuv Jarayonidagi Omillar Hamda Oil A Va Jamiyatning Ahamiyati. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(6), 1154-1158.
6. Islomjanovna, A. M. (2022). Traditions of culture in Islam and their modern significance. World Bulletin of Social Sciences, 9, 198-202.
7. Abdufattokhov, S., Normatova, N., & Shermatova, M. (2022). Artificial Neural Networks Based Predictive Model for Detecting the Early-Stage Diabetes. Journal of Artificial Intelligence, Machine Learning and Neural Network (JAIMLNN) ISSN, 2799-1172.
8. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. Electrica, 23(2).
9. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. Operations Research and Decisions, 32(4).
10. Maksakovskiy V.P. Географическая культура. Учебное пособие. - М., 1998.